XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 19-mart VII-7-41-14-0-K/25 Toshkent shahri

Yashnobod tumanidagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalari, “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga asosan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent shahar komissiyasining 2025-yil 17-yanvardagi 4-son majlisi bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Yashnobod tumanidagi nomsiz aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Yashnobod tumanidagi nomi takrorlangan hamda geografik joylashuvi qayta ko‘rib chiqilishi natijasida nomi o‘zgarayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarini qayta nomlash bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Yashnobod tumanidagi geografik joylashuviga aniqlik kiritilayotgan o‘z nomida qolayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari (D.Raximova, A.Xen), Yashnobod tumani hokimligi (B.Raxmankulov) nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari (ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalar) to‘g‘risida mahalliy aholi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlarini olib borsin.

4. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari (D.Raximova, A.Xen), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Toshkent shahar boshqarmasi (F.Mahmudxo‘jayev), Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov), Toshkent shahar Statistika boshqarmasi (L.Mirsoatov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin hamda bu borada zarur choralarni ko‘rsin.

5. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi (A.Yunusov) ikki oy muddatda:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi 1010-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom” talablari asosida nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari (ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalar)da joylashgan ko‘chmas mulk obyektlarining manzillarini belgilash, o‘zgartirish va me’yorlashtirish ishlarini amalga oshirsin;

manzil o‘zgartirilganligi haqida o‘rnatilgan tartibda manfaatdor shaxslarni xabardor qilsin.

6. Toshkent shahar hokimligi Obodonlashtirish bosh boshqarmasi (A.Yunusov) uch oy muddat ichida nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari (ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalar)da ko‘cha ko‘rsatkichlari (peshlavhalari)ni davlat tili talablariga mos ravishda belgilangan tartibda o‘rnatish va almashtirish ishlarini yakunlasin.

7. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (G.Kasimova)ga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Qurilish, kommunal, suv xo‘jaligi, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Turabdjanov hamda Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari D.Raximova va A.Xen zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

KALANOV RUSTAM ABDUXAKIMOVICH

Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining
2025-yil 19-martdagi
VII-7-41-14-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Yashnobod tumanidagi nomsiz aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi
1.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	256-nomsiz ko‘cha	Buzrukvor ko‘chasi	Obizarang ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
2.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	204-nomsiz ko‘cha	Dovon ko‘chasi	Obizarang ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
3.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	yangi nomsiz ko‘cha	Dovultepa ko‘chasi	Piskom ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
4.	ko‘cha	Al-Buxoriy mahallasi	yangi nomsiz ko‘cha	Ziynat ko‘chasi	Oqyer ko‘chasidan Hamdam-2 tor ko‘chasigacha
5.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	206-nomsiz ko‘cha, Murabbiylar ko‘chasi qismi	Moviyko‘l ko‘chasi	Cho‘lpon ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
6.	tor ko‘cha	Uchchinor mahallasi	232-nomsiz ko‘cha qismi	Moviyko‘l-1 tor ko‘chasi	Moviyko‘l ko‘chasidan Dovultepa ko‘chasigacha
7.	tor ko‘cha	Uchchinor mahallasi	207-nomsiz ko‘cha	Nahor-1 tor ko‘chasi	Nahor ko‘chasidan Beklarbegi ko‘chasigacha
8.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	257-nomsiz ko‘cha	Nozirlar ko‘chasi	Obizarang ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
9.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	183-nomsiz ko‘cha	Obizarang ko‘chasi	Onazamin ko‘chasidan Dovultepa ko‘chasigacha
10.	ko‘cha	Al-Buxoriy, Uchchinor, Mohinur mahallalari	722-nomsiz ko‘cha qismi	Oqyer ko‘chasi	Cho‘lpon ko‘chasidan Uchchinor mahallasi hududigacha

11.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	258-nomsiz ko‘cha	Olchin ko‘chasi	Obizarang ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
12.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	yangi nomsiz ko‘cha	Ranginkamon ko‘chasi	Piskom ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
13.	tor ko‘cha	Tuzel mahallasi	yangi nomsiz ko‘cha	Salohiyat-1 tor ko‘chasi	Salohiyat ko‘chasidan Yangikun ko‘chasigacha
14.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	260-nomsiz ko‘cha, 232-nomsiz ko‘cha qismi	Surur ko‘chasi	Moviyko‘l-1 tor ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
15.	ko‘cha	Tuzel, Uchchinor mahallalari	767-nomsiz ko‘cha	Umidbaxsh ko‘chasi	Salohiyat ko‘chasidan Cho‘lpon ko‘chasigacha
16.	tor ko‘cha	Al-Buxoriy mahallasi	756-nomsiz ko‘cha	Hamdam-1 tor ko‘chasi	Hamdam ko‘chasidan Oqyer ko‘chasigacha
17.	tor ko‘cha	Al-Buxoriy, Uchchinor mahallalari	722-nomsiz ko‘cha qismi	Hamdam-2 tor ko‘chasi	Hamdam ko‘chasidan Oqyer ko‘chasigacha
18.	ko‘cha	Tuzel mahallasi	768-nomsiz ko‘cha	Yangikun ko‘chasi	Tuzel-1 mavzesi hududidan Umidbaxsh ko‘chasigacha

Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining
2025-yil 19-martdagi
VII-7-41-14-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Yashnobod tumanidagi nomi takrorlangan hamda geografik joylashuvi qayta ko‘rib chiqilishi natijasida nomi o‘zgarayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarini qayta nomlash bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi
1.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Chinor-2 tor ko‘chasi	Beklarbegi ko‘chasi	Uchchinor ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
2.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Murabbiylar-1 berk ko‘chasi qismi	Yoshlar ovozi ko‘chasi	Cho‘lpon ko‘chasidan Sharq darvozasi ko‘chasigacha
3.	tor ko‘cha	Uchchinor, Tovkentepa mahallalari	Murabbiylar ko‘chasi qismi, Murabbiylar-2 berk ko‘chasi qismi	Yoshlar ovozi-1 tor ko‘chasi	Yoshlar ovozi ko‘chasidan Cho‘lpon ko‘chasigacha
4.	berk ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Murabbiylar-2 berk ko‘chasi qismi	Yoshlar ovozi-1 berk ko‘chasi	Yoshlar ovozi ko‘chasidan boshlanuvchi
5.	berk ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Murabbiylar-1 berk ko‘chasi qismi	Yoshlar ovozi-2 berk ko‘chasi	Yoshlar ovozi ko‘chasidan boshlanuvchi
6.	berk ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Murabbiylar-1 berk ko‘chasi qismi	Yoshlar ovozi-3 berk ko‘chasi	Yoshlar ovozi ko‘chasidan boshlanuvchi
7.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Chinor-1 tor ko‘chasi	Inoqlik ko‘chasi	Uchchinor ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
8.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Murabbiylar ko‘chasi qismi, Chinor ko‘chasi qismi	Nahor ko‘chasi	Cho‘lpon ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
9.	tor ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Chinor ko‘chasi qismi	Nahor-2 tor ko‘chasi	Nahor ko‘chasidan Nahor ko‘chasigacha
10.	tor ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Chinor ko‘chasi qismi	Oqyer-1 tor ko‘chasi	Oqyer ko‘chasidan Nahor ko‘chasigacha

11.	tor ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Chinor ko‘chasi qismi	Oqyer-2 tor ko‘chasi	Oqyer ko‘chasidan Nahor ko‘chasigacha
12.	tor ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Chinor ko‘chasi qismi	Oqyer-3 tor ko‘chasi	Oqyer ko‘chasidan Nahor ko‘chasigacha
13.	tor ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Chinor ko‘chasi qismi	Oqyer-4 tor ko‘chasi	Oqyer ko‘chasidan Nahor ko‘chasigacha
14.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Chinor-3 tor ko‘chasi	Onazamin ko‘chasi	Uchchinor ko‘chasidan Oltinbeshik ko‘chasigacha
15.	berk ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Salohiyat-2 berk ko‘chasi	Salohiyat-1 berk ko‘chasi	Salohiyat ko‘chasidan boshlanuvchi
16.	berk ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Salohiyat ko‘chasi qismi	Salohiyat-2 berk ko‘chasi	Salohiyat ko‘chasidan boshlanuvchi
17.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Chinor ko‘chasi qismi, Ziyolilar ko‘chasi	Uchchinor ko‘chasi	Oqyer ko‘chasidan Moviyko‘l ko‘chasigacha
18.	ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Murabbiylar-1 berk ko‘chasi qismi	Sharq darvozasi ko‘chasi	Sharq darvozasi-1 berk ko‘chasidan Uchchinor mahallasi hududigacha
19.	berk ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Murabbiylar-1 berk ko‘chasi qismi	Sharq darvozasi-1 berk ko‘chasi	Sharq darvozasi ko‘chasidan boshlanuvchi
20.	berk ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Murabbiylar-1 berk ko‘chasi qismi	Sharq darvozasi-2 berk ko‘chasi	Sharq darvozasi ko‘chasidan boshlanuvchi
21.	berk ko‘cha	Uchchinor mahallasi	Murabbiylar-1 berk ko‘chasi qismi	Sharq darvozasi-3 berk ko‘chasi	Sharq darvozasi ko‘chasidan boshlanuvchi

Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining
2025-yil 19-martdagi
VII-7-41-14-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Yashnobod tumanidagi geografik joylashuviga aniqlik kiritilayotgan o‘z nomida qolayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari ro‘yxati

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi
1.	ko‘cha	Tuzel, Uchchinor mahallalari	Salohiyat ko‘chasi qismi	Salohiyat ko‘chasi	Tuzel-1 mavzesi hududidan Cho‘lpon ko‘chasigacha